# Erta gullaydigan, ildiz tizimi rivojlangan biotexnologik kartoshka navi yaratildi

Kartoshka eng ustuvor qishloq xo’jaligi ekinlaridan bo’lib, u mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Kartoshkachilikni muvaffaqiyatli rivojlantirishning amaliy masalalari va vazifalarini hal etishda RNK interferensiya usulidan foydalanish orqali O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazi olimlari tomonidan erta gullaydigan, ildiz tizimi rivojlangan va hosildorlik ko’rsatkichlari yaxshilangan biotexnologik kartoshka navi yaratildi.

Hozirgi kunda Markaz olimlari tomonidan RNK interferensiya usulida olingan yangi biotexnologik kartoshka navini mikrotuganaklarini issiqxona va dala sharoitida tuproqqa moslashtirish bo’yicha tadqiqotlarni amalga oshirilmoqda. Tajriba natijalariga ko’ra, birinchi g’unchalar gen-nokaut kartoshka navlarida paydo bo’ldi va nazorat navlarga nisbatan 15 kun oldin gullashi kuzatildi. Hosildorlik ko’rsatkichlari gen-nokaut kartoshka liniyalarida nazoratga nisbatan 26,6 foiz yuqori bo’ldi va tuganaklar yirikligi, soni, ildiz sistemasini yaxshi rivojlanganligi bilan ham farq qildi.